

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹ 2025- yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **27 884,0** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,8** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **5 234,1** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **22 649,9** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **111,8** % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan (**6 331,4** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 294,5** ming so'mga yoki **10,3** % ga o'sib, **7 625,9** ming so'mni tashkil etgan.

2025- yilni tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **20 403,6** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **73,2** % ini, jumladan, **43,1** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹ 2024- yil yanvar-iyul oylari hajmi va 2025- yil yanvar-iyul oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	27 884,0	100,0	112,8
Qarshi shahar	4 840,7	17,4	117,9
Shahrisabz shahar	868,6	3,1	111,8
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor tumani	607,0	2,2	112,7
Dehqonobod tumani	517,6	1,9	113,3
Qamashi tumani	936,7	3,4	110,8
Qarshi tumani	988,3	3,5	115,7
Koson tumani	963,1	3,5	112,9
Kitob tumani	1162,0	4,2	112,6
Mirishkor tumani	718,1	2,6	112,0
Muborak tumani	823,0	3,0	111,9
Nishon tumani	697,8	2,5	112,8
Kasbi tumani	818,7	2,9	113,3
Ko'kdala tumani	275,1	1,0	112,7
Chiroqchi tumani	443,2	1,6	112,7
Shahrisabz tumani	820,6	2,9	112,3
Yakkabog' tumani	761,0	2,7	113,2

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **27,5 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissassi **2,9** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **13,5 %** ga (o'sishiga hissassi **1,9** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **9,8 %** ga (o'sishiga hissassi **3,6** band), savdo xizmatlari **9,9 %** ga (o'sishiga hissassi **1,9** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **19,5 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissassi **0,6** band) va ta'lim sohasidagi xizmatlar **21,7 %** ga (o'sishiga hissassi **0,5** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)


	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	22 649,9	27 884,0	112,8
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	762,8	997,3	117,3
moliyaviy xizmatlar	2 366,2	3 080,8	127,5
transport xizmatlari	3 122,8	3 946,1	113,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 862,3	3 523,0	111,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	8 336,4	10 151,0	109,8
savdo xizmatlari	4 328,3	5 024,6	109,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	350,9	413,4	106,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	713,1	938,9	114,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	327,1	410,0	114,7
ijara xizmatlari	304,3	391,7	117,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	609,1	733,0	111,3
shaxsiy xizmatlar	552,2	722,1	108,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	166,0	180,1	99,0
boshqa xizmatlar	710,7	895,0	114,0

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **36,4** %, savdo xizmatlari **18,0** %, transport xizmatlari **14,2** %, moliyaviy xizmatlar **11,0** %, boshqa xizmatlar **3,2** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,6** % ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish **36,8** foiz, savdo xizmatlari **19,1** foiz, transport xizmatlari **13,8** foiz, moliyaviy xizmatlar **10,5** foiz, boshqa xizmatlar **3,1** foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa **3,4** foiz ulushni tashkil etgan.



PRESS-RELIZ
*Qashqadaryo viloyati xizmatlar
sohasining asosiy
ko'rsatkichlari*

Xizmat turi	Ulushi (%)
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	36,4
Savdo xizmatlari	18,0
Transport xizmatlari	14,2
Moliyaviy xizmatlar	11,0
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	3,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,4
Boshqa xizmatlar	3,2
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,6
Shaxsiy xizmatlar	2,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,5
Ijara xizmatlari	1,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,6

2025- yilning yanvar-iyul oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **moliyaviy va sug'urta xizmatlariga yordamchi xizmatlarda** o'sish kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **8,9** mlrd so'mga yoki **26,5** foizga o'sishi kuzatilgan.

Month	Temperature (°C)
yanvar 2024-y.	12,5
yanvar-fevral	11,5
yanvar-mart	11,0
yanvar-aprel	12,5
yanvar-may	12,8
yanvar-iyun	13,0
yanvar-iyul	11,5
yanvar-avgust	11,8
yanvar-sentabr	12,0
yanvar-oktabr	11,8
yanvar-noyabr	11,8
yanvar-dekabr	11,0
yanvar 2025-y.	16,5
yanvar-iyun	12,5

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (138,5 %)**, **pochta va kuryerlik xizmatlarida (126,7 %)** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzun Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **88,3 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 180100, Qashqaryo
viloyati, Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
Pochta: gashstat@umail.uz
Tel.: 75-221-05-27, 75- 221-32-44

